

**PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA MULTIMEDIALI  
VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

---

*FarDU Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs  
Najmuddinova Saodat Abduvohid qizi*

**Annatatsiya:** *Mazkur maqolada, pedagogika fanini o‘qitishda foydalaniladigan multimedia vositalarining xususiyatlari, multimedia vositalaridan foydalanish tamoyillari va multimedia vositalari bilan ilm-fanni o‘rganish imkonini beruvchi turli xil imkoniyatlar haqida yoritib o‘tilgan.*

**Аннотация:** В данной статье описаны характеристики мультимедийных средств, используемых в преподавании педагогики, принципы использования мультимедийных средств, а также различные возможности, позволяющие изучать науку с помощью мультимедийных средств.

**Annotation:** This article describes the characteristics of multimedia tools used in the teaching of pedagogy, the principles of using multimedia tools, and various opportunities that allow learning science with multimedia tools.

**Kalit so‘zlar:** *multimedia, defektolog, innovatsion faoliyat, modem, animatsiya, TV-tyuner, proyektor, monitor, video karta, gipermatn, kompakt disk, o‘quv muhiti.*

**Ключевые слова:** *мультимедиа, дефектолог, инновационная деятельность, модем, анимация, ТВ-тюнер, проектор, монитор, видеокарта, гипертекст, компакт-диск, образовательная среда.*

**Key words:** *multimedia, defectologist, innovative activity, modem, animation, TV-tuner, projector, monitor, video card, hypertext, CD, educational environment.*

### KIRISH

**Multimedia** (*lotincha—ko ‘pvositalilik*)—bu insonga o‘zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia—gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar tehnologiyasidir. Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida hayotimizga kirib keldi. Videodan farqli ravishda multimediali tehnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi, ya’ni interfaol bo‘lishi mumkin. Multimediali taqdimot ma’lumotni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilishni ta’minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma’lumotlarni ko‘radi va o‘zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma’lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi.

Ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali taqdimot bir necha o'n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho'ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o'lchamli grafiklarni o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, ko'paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining uzoqligini ta'minlaydi. Multimedia vositalaridan foydalanish ochiq dars, ilmiy maqolalar, slaydlar, videolar, animatsiyalar va boshqalar orqali o'qitish va ma'lumotlar olish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu usul talabalarga ma'lumotlarni oson olish va tushunarli bo'lishida yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalarining eng muhim faol bo'limi video va animatsiyalar orqali ta'lim berishdir. Bu usul tarzida ma'lumotlarni ko'rsatilishi, oson tushunilishi va mazmuni o'rganilishi talabalarga o'qitish jarayonini jiddiy darajada osonlashtiradi. Jamiyatimizning multimedia vositalaridan foydalanishi ta'lim va o'qitish sohasida imkoniyatlarini kengaytiradi va talabalarga soda va ajoyib ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu esa talabarning ma'lumotlarini oson tushunishlariga va o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Pedagogikani o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish juda muhimdir, chunki bu usullar talabalar uchun juda muhim ma'lumotlarni ko'rsatishda, darsni yanada mukammal va dastlabki qo'llanmalaridan farqli ravishda o'qitish imkoniyatini beradi. Multimedia vositalari o'rganish jarayonida talabalarga ma'lumotlarni visual ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o'rganish jarayonini yoqimliroq, qiziqarliroq va o'rganuvchini qiziqtirib qo'yuvchi tarzda o'tkazishga yordam beradi. Multimedia vositalari o'rganish uchun chuqurroq hissiyotlarni o'ziga olish imkonini berishning yanada kengaytirilgan tajriba va rahbariyat hissiyotini o'sishida qo'llaniladi. Masalan, videolar, animatsiyalar, interaktiv darslar, interaktiv asboblar va dasturlarni o'qitish jarayonini yanada mukammal va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ushbu multimedia vositalari hisob-kitoblarni qidirish, o'rganishni ommalash, motivatsiyani oshirish va tushunchalarni yaxshilash uchun juda muhimdir. Bu bilan birga, multimedia vositalari foydalanuvchilarga o'rganishni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish o'rgangan ma'lumotlarni saqlashga va qayta yuklashni osonlashtiradi. Jamiyatimizda multimedia vositalariga kirish davlat dasturlariga biznes dasturlarini o'qituvchi va o'rganuvchilarni tayyorlash dasturlari keng tarqagan bo'lishi bilan multimedia vositalari o'rganishni o'rganish va o'rganish sohasini qo'llab-quvvatlash shu sohadagi nazariy va amaliy jihatlariga ega bo'lishi kerak.

Respublikamizda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nogironlikka ega bo'lgan, rivojlanishida nuqson bo'lgan o'quvchilarning nutqi, bilish faoliyati, fanlarni o'zlashtirish va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tadqiq qilinmagan. Multimedia vositalari asosida nutqida, eshitishida, ko'rishida, aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim berish jarayonlarida

tatbiq etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Ta'lim tizimida innovatsion tehnologiyalar, jumladan, zamonaviy, ilg'or AKTlarni joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari pedagog-defektologlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda axborot-kommunikatsion tehnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari kengdir. Maxsus ta'lim muassasalarida, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning dars jarayonlarida AKTning joriy etilishi ta'lim samarasini oshirishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarga texnik vositalar va multimedia tehnologiyalari asosida mashg'ulotlar olib boorish, berilayotgan bilimni tez va oson o'zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi tadqiqot natijalarida o'z isbotini topmoqda. Jumladan, maxsus ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari, o'quvchilarning fikr almashishi, erkin va ijodiy tafakkurini rivojlantirish va o'z fikrini to'g'ri va aniq yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lishida ularni hayotga ijtimoiylashuviga omil bo'ladi. Ma'lumki, multimedia tehnologiyalari maxsus ta'lim jarayonini boyitadi, o'quv materiali, ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaradorligini oshirish imkonini beradi. Multimedia—bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro visual va audiosamara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni birgalikda taqdim etadi. Demak, axborot tehnologiyasi pedagogika va uning yo'naliishlari (surdopedagogika, logopediya, oligofrenopedagogika)ga faol kirib kelishi kun talabidir va ushbu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

AKT sohasidagi o'zgarishlar axborotni taqdim etish, qabul qilish, almashish usullarini ham o'zgartirdi. Electron o'quv materiallari vaqt va ishslash jihatdan ko'p afzalliklarga ega bo'lsa-da, ular qayta-qayta foydalanish, osonlik bilan almashish va ko'paytirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Kompyuter va internet bilan o'zgargan va rivojlanishda davom etayotgan ta'lim muhitlarida qo'llaniladigan materiallar kompyuter bilan ta'lim muqarrar bo'lib qoldi. Ta'lim va o'qitish jarayonida doimiylikni ta'minlash uchun foydalilanadigan materiallar turli xil va bir necha tuyg'ularga murojaat qilishi tavsiya etiladi. Kurs materiallarini tayyorlashda, masalan, individual farqlarni hisobga olish (o'rghanish uslubi, o'rghanish tezligi va boshqalar) va keyin ularni talabalarga taqdim etish kabi ko'plab qiyinchiliklari mavjud.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan materiallarni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoni bor;
- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- Ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishish;
- O'qituvchi sinfda bo'lishi shart emas;

- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniga erishiladi;

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumlidir va vaqtidan yutishi mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtini tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% oshadi. Bunga qo‘sishmcha sifatida o‘quv materiallarni audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko‘rinishda namoyish etish mumkin. Multimediali axborot resurslari animatsiyali, audio va video ma’lumotlardan tarkib topadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Multimedianing texnik vositalari vazifalariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

- Nutqli axborotni kiritish va chiqarish qurilmalari (mikrafon, kuchaytirgichlar, tovush kalonkalari);
- Video va grafik ma’lumotlarni kiritish qurilmalari (raqamli video kamera, raqamli foto kamera, TV-tyuner, modem);
- Ma’lumotlarni namoyish etish raqamli tasvir va videoaxborotlarni foydalanuvchiga namoyish etish qurilmalari (monitor, proyektor, video karta va boshqalar);

Kompyuter multimedia ma’lumotlarini turli formatlarda saqlaydi: matn, grafika, audio, animatsiya va video. Multimediali kompyuterlar so‘z, musiqa va boshqa ovozli ma’lumotlar hamda video ma’lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Multimedia tehnologiyalari ta’lim rivojlanishining kafolati hisoblanadi. Multimedia tehnologiyalari ta’lim jarayonini boyitadi, o‘quv materiali ta’limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralashtirish imkonini beradi. Gipermedia—bu multimediali obyektlarda qo‘llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog‘liq kompyuter fayllaridir. Ta’limni kompyuter va boshqa internet-tehnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog‘liq muammo bo‘lishi mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD disklari deb ataladigan optic kompakt disklar yordamida hal etish mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tehnologiyaning rivojlanishi o‘quv ta’lim jarayoniga innovatsiyalar olib keldi va multimediali o‘quv muhitini rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimediadidan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia tehnologiyalaridan o‘quv

jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.X.Ayupov. "ta'limda axborot tehnologiyalari" (o'quv qo'llanma). T.: TDPU. 2020-yil.
2. U.Q.Maqsdov, Y.Eraliyev, G.Qosimova. "Ta'limda multimediali vositalardan foydalanishning pedagogic xususiyatlari". 2022-yil.
3. L.R.Muminova, D.B.Yakubjanova, G.S.Abdullayeva, H.S.Akramova, Sh.T.Karimova. "Imkoniyati cheklangan bolalarmi o'qitish va reabilitatsiya jarayonida axborot tehnologiyalarining qo'llanishi". Toshkent. 2020-yil.
4. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
5. Vikipediya